NEMIS XALQINING URF-ODATLARI VA QADRIYATLARIDA AKS ETGAN LINGVOMADANIY MAZMUNGA BIR NAZAR

Hafizov G‘ayrat Abduhakimovich
Gyote-Institutining O‘zbekistondagi filliali
Ta’lim sohasida hamkorlik bo‘limi xodimi

Anotatsiya

Maqolada nemis xalqining urf-odatlari va qadriyatlarida aks etgan lingvomadaniy mazmun tahlil qilinadi. Til birliklari orqali madaniy stereotiplar, qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlar qanday shakllanishi ko‘rsatiladi. Bartmiński, Wierzbicka, Fillmore, Lakoff va Johnson nazariyalari asosida lingvistik dunyoqarash, madaniy skriptlar, frame semantika va konseptual metaforalar izohlanadi. Elias, Douglas, Assmann va Mieder qarashlari orqali odob-axloq me’yorlari, poklik tushunchasi, madaniy xotira mexanizmlari va maqollar jamiyat qadriyatlarini qanday aks ettirishi ko‘rsatib beriladi. Hofstede modeli yordamchi analogiya sifatida qo‘llanib, nemis madaniyatidagi tartib, qoidaparanlik va shaxsiy hududga hurmat kabi xususiyatlar individualizm va noaniqlikdan qochish ko‘rsatkichlari bilan bog‘lanadi. Advent, Nikolaus, Rojdestvo, Karnaval, Maibaum, Oktoberfest kabi kalendar marosimlari hamda hayot sikliga oid odatlar (Einschulung, Taufe, to‘y marosimlari) jamiyat qadriyatlarini ramziy shaklda ifodalab, madaniy xotirani har yili qayta jonlantiradi.

Kalit so‘zlar: *Lingvomadaniy mazmun, Nemis urf-odatlari, Nemis qadriyatlari, Bartmiński nazariyasi, Madaniy skriptlar, Frame semantika, Konseptual metafora, Norbert Elias, Mary Douglas, Jan Assmann, W. Mieder, Hofstede modeli, Kalendar marosimlari, Advent odatlari, Nikolaus bayrami, Rojdestvo odatlari, Karnaval/Fasching, Maibaum, Oktoberfest, Hayot sikli odatlari, Einschulung va Schultüte, Taufe va Taufpate, To‘y odatlari.*

KIRISH

Nemis xalqining urf-odatlari va ijtimoiy qadriyatlari jamiyatda uzluksiz amal qilib kelayotgan lingvomadaniy mazmunni, ya’ni til birliklari orqali avloddan-avlodga o‘tuvchi madaniy kod va qadriyatlar tizimini o‘zida mujassam etadi. Nemislarning yil fasllari bilan bog‘liq kalendar-marosimlari, hayot sikli voqealari (tug‘ilishdan to to‘y va boshqa), kundalik turmush odatlari (masalan, uyga ko‘chib kirishdagi rasm), ovqatlanish va muomala etiketasi, shuningdek, jamiyatda e’zozlanadigan asosiy qadriyatlar (tartib, punktuallik, halollik, hamjamiyat, tabiatga ehtiyotkorlik kabilar) tilda o‘z aksini topgan.

Polshalik olim J.Bartmiński ta’kidlaganidek, har bir xalq tili dunyoqarashi aks ettiruvchi ombor bo‘lib, unda aksiologiya – yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar, qadriyat munosabatlari – mujassamlashgan. Demak, til birliklarini o‘rganish orqali xalqning madaniy stereotiplari va qadriyat mezonlarini aniqlash mumkin. Bartmiński va uning maktabi tilni lingvistik dunyoqarashni saqlovchi vosita deb biladi, bunda har bir konsept atrofida xalqning umumiy bilimlari va baholari to‘plangan bo‘ladi. Shuningdek, Avstraliyada faoliyat yuritgan tilshunos A. Wierzbicka taklif qilgan madaniy skriptlar – ma’lum bir til jamoasida qabul qilingan xulq-atvor va so‘zlashuv me’yorlarini tavsiflovchi “agar X vaziyat bo‘lsa, Y deb aytish/amal qilish lozim” tarzidagi yarim-ongli qoidalar tizimidir. [6, P. 43-78] Masalan, nemis jamiyatida yangi yil arafasida bir-biriga “Guten Rutsch!” (Yangi yilingiz yaxshi o‘tsin, “yaxshi sirg‘anish!”) deyish odat tusiga kirgan – bu skriptni shunday ifodalash mumkin.

Til va madaniyatni integrativ o‘rganishda kognitiv semantika yondashuvi ham muhim rol o‘ynaydi. Ch. Fillmore tomonidan ishlab chiqilgan frame semantika nazariyasiga ko‘ra, har bir leksik birlik ma’no hosil qilishda tegishli framega, ya’ni bilimlar va voqealar ssenariysiga tayanadi. [1] Masalan, Nikolausstiefel (Sankt-Nikolay etiklari) degan oddiy birlik bolalar 5-dekabr kechasi o‘z etiklarini toza qilib, eshik oldiga qo‘yishi va 6-dekabr tongida ularda Sankt-Nikolay keltirgan shirinliklarni topishi kabi butun bir marosimiy voqeani esga soladi. [6, P. 43-78]Bu birlikning mazmunini to‘g‘ri tushunish uchun uning ortidagi frame – “Nikolaus bayrami” ssenariysi – to‘liq ravishda e’tiborga olinishi kerak. G. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasi ko‘ra madaniy metaforalar abstrakt tushunchalarni milliy madaniyatga xos konkret tasvirlar orqali ifodalaydi (Masalan, nemis tilida Zeit ist Geld – “vaqt bu pul” iborasi vaqtning qadrini iqtisodiy boylikka qiyoslab ko‘rsatadi). Urf-odatlarda ham ko‘plab metaforik ma’nolar yashirin bo‘ladi. Masalan, to‘y marosimida kuyov va kelinning birga arra bilan yog‘och kesishi (Baumstammsägen) hayotdagi qiyinchiliklarni birgalikda yengib o‘tish kerakligi metaforasini ifodalaydi.

Madaniyat va odatlar tarixi nuqtai nazaridan N.Elias va M.Douglasning qarashlari bizga tarixiy-konseptual fon beradi. Norbert Elias “Sivilizatsiya jarayoni” asarida Yevropa jamiyatida odob-axloq va marosim qoidalari qanday shakllanib, tashqi zo‘ravonlik va qo‘pol hatti-harakatlarning ichki nazorat me’yorlariga aylanganini tahlil qiladi. Xususan, jamiyat rivojlanishi davomida kundalik turmushda o‘zini tuta bilish, o‘z hirs va his-tuyg‘ularini jilovlash madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. [1] Mary Douglas esa “Poklik va xavf” (Purity and Danger) konsepsiyasida tabu va iflos-nopok tushunchalarini tahlil qilgan. Uning ta’rifi bo‘yicha “kir – bu o‘z o‘rnida bo‘lmagan narsadir”, [4] ya’ni jamiyat qanday narsani qayerda ko‘rishni me’yor deb bilsa, shu tartib buzilganda uni “nopok” deb ataydi. Bu nazariya asosida, masalan, nemis odatlarida oyoq kiyimini uyning ichida yechish (Schuhe aus!) gigiyena va hurmat belgisi sifatida qaraladi. Chunki, ko‘chadagi “nopoklik” (chang, axloqsizlik) uy ichiga kiritilmasligi kerak degan tushuncha mavjud. Xuddi shuningdek, yakshanba kuni shovqin qilmaslik, tunda baland ovozda hushtak chalmaslik ham “muqaddas dam olish va osoyishtalik”ni iflos narsalardan saqlash g‘oyasiga borib taqaladi.

J.Assmannning “madaniy xotira” nazariyasiga muvofiq, har bir jamiyat o‘z qadriyat va xotiralarini institutlashgan marosimlar orqali eslab qoladi va uzatadi. Nemislarning har yili takrorlanuvchi Advent, Rojdestvo, Karnaval kabi bayramlari madaniy xotira mexanizmlari bo‘lib, ular orqali diniy va tarixiy voqealar yodga olinadi va bugungi avlodga qadriyatlar singdiriladi. Masalan, Epifaniya (3-sho‘hlar bayrami)da bolalar yulduzchi qiyofasida xonadonma-xonadon yurib qo‘shiqlar aytishi va eshiklarga 20C+M+B (yil) yozuvini qoldirishi odati (Sternsinger) Qadimiy Injil rivoyatini hamda xonadonlarga duo tilash qadriyatini yodga soluvchi xotira marosimidir – ushbu “C+M+B” yozuvi lotincha Christus mansionem benedicat (“Masih ushbu uyni marhamatli qilsin”) degan iboraning qisqartmasidir. [5] Ko‘rinib turibdiki, bu kabi odatlar orqali jamiyat o‘z diniy merosini yodda tutadi va yosh avlodga singdiradi.

Til va urf-odatlarning o‘zaro aloqasida paremiologiya (maqol-sharhlar) ham muhim manba bo‘ladi. Mashhur paremiolog olim W. Mieder “Proverbs never die, they just diversify” deb yozgan edi – ya’ni maqollar hech qachon yo‘qolmaydi, ular faqat

yangi sharoitlarda yangi variantlarda namoyon bo‘ladi. Nemis tilida ham maqollar va qanotli iboralar jamiyat qadriyatlarini ifodalaydi. Masalan, “Ehrlich währt am längsten” (Halollik eng uzoq umr ko‘radi) degan maqol halollikni oliy fazilat deb e’tirof etsa, “Nur Bares ist Wahres” (Faqat naqd pul – chin haqiqat) degan ibora iqtisodiy ehtiyotkorlik va ishonch masalasini aks ettiradi. Duden nashriyoti tomonidan tuzilgan “Redewendungen” (frazeologik iboralar) lug‘ati va normativ qo‘llanmalar bu iboralarning hozirgi jamiyatda qanday qo‘llanishini belgilab beradi. R. W. Brednich va K. Daxelmüller kabi folklorshunos va tarixchilar nemis xalq Volkskultur (xalq madaniyati) va urf-odatlari tarixi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borgan.

Gert Hofstede turli xalqlarni individualizm – kollektivizm, noaniqlikdan qochish kabi o‘lchovlar bo‘yicha taqqoslagan. Nemis madaniyatida yuqorida tilga olingan “tartibni sevish”, “qoidaparanlik”, “shaxsiy hududga hurmat” kabi xususiyatlar Hofstede tavsiflagan noaniqlikdan qochish va individualizm ko‘rsatkichlariga bog‘lanishi mumkin. Biroq bu bog‘liqlikni soddalashtirib yubormaslik kerak. Biz Hofstede modelini maxsus filtr sifatida emas, balki lingvistik faktlar talqinida yordamchi analogiya sifatida eslatib o‘tamiz. Chunki til va madaniyat tahlili ancha nozik bo‘lib, faqat keng statistik o‘lchovlarga jamlab bo‘lmaydi. Har bir odat matn va kontekstda alohida yoritilishi lozim.

Nemis madaniyatida yil davomida takrorlanib keladigan turli kalendar bayramlari va marosimlari mavjud. Ular orqali jamiyat o‘z diniy va dunyoviy qadriyatlarini nishonlaydi hamda mustahkamlaydi. Adventdan boshlab yangi yil, bahorgi va yozgi bayramlargacha va har bir mavsumiy rasm-rusum o‘ziga xos lingvistik belgilar va formulalarni yaratgan. Quyida ana shunday odatlardan ba’zilari tahlil qilinadi. Masalan, Advent davridagi rasm-rusumlar (Adventskranz va Adventskalender), Nikolaus (6-dekabr bayrami), Rojdestvo (Christmas)da uchraydigan farqlar (Christkind va Weihnachtsmann), yangi yil oldidan aytiladigan tilaklar (Guten Rutsch!), Yangi yil kechasidagi fol ochish odati (Bleigießen/Wachsgießen), bahorgi Walpurgisnacht va Maibaum (1-may), hamda mashhur nemis karnaval an’analari (Karneval/Fasching davridagi “Alaaf/Helau” nidalari va Weiberfastnacht odatlari) hamda Bavariyadagi Oktoberfest ochilish marosimi. Bu odatlarning barchasi xalq hayotida saqlanib, ular vositasida alohida qadriyatlar namoyon bo‘ladi. Masalan, Advent marosimlari – kamtarlik va xotirjam kutish, Nikolaus odati – yaxshi xulqni rag‘batlantirish, yangi yil odatlari – umid va ehtiyotkorlik, karnaval odatlari – hamjamiyat va rollar almashuvi, maibaum – jamoaviy birdamlik va bahoriy yangilanish, Oktoberfest – an’ana va shodlik kabi qadriyatlarni ilgari suradi.

Kalendar-marosim odatlarining har biri nemis jamiyatida ma’lum aksiologik mazmun tashiydi. Masalan, Adventskranz va Adventskalender odatlari kamtarlik va sabr qadriyatini targ‘ib qiladi – Rojdestvoni bosiqlik bilan kutish, har bir kunni minnatdorlik bilan o‘tkazish (sham yoqish va sovg‘acha). Nikolaus odati esa axloqiy intizomni (yaxshi bo‘lsang – mukofot, yomon bo‘lsang – tanbeh) bolalarga o‘yin tarzida singdiradi. Christkind va Weihnachtsmann obrazlari orqali jamiyat diniy qadriyatlar (Masih timsoli) va sekulyar quvonch (Santa Klaus) o‘rtasidagi muvozanatni saqlab, bu esa hududiy farqlar madaniy xilma-xillikni ko‘rsatadi. Yangi yil odatlarida (Guten Rutsch, Bleigießen) noaniq kelajakka umid va biroz xurofot bilan uyg‘unlashganligini

kuzatish mumkin. Bunda bir tomondan, rasmiy tilak va fol ochish orqali odamlar kelajakka tayyorgarlik ko‘radi, ikkinchi tomondan ilmiy bo‘lmagan ishonchlar ham yashab keladi. Walpurgisnacht va karnavaldagi odatlar jamiyatga vaqtincha erk berish, rasmiyatchilik va ierarxiyani ag‘darib, hamjihatlikda quvonch qilish imkonini beradi. Maibaum va Oktoberfest esa jamoaviy g‘urur va birdamlikni tantana qilish, urf-odatga hurmat ko‘rsatish kabilarni o‘zida ifoda etadi. Demak, kalendar-marosimlar nemislarning madaniy xotirasini jonlantirish bilan birga, asosiy qadriyatlarni har yili qayta jonlantiradi.

Har bir xalq madaniyatida inson hayotining muhim bosqichlariga oid urf-odatlar alohida o‘rin tutadi. Nemis jamiyatida tug‘ilish, voyaga yetish, turmush qurish kabi hayot sikli voqealariga doir qator an’anaviy marosimlar mavjud. Bu odatlar ham o‘z navbatida lingvistik formulalar va ramziy harakatlar orqali qadriyatlarni aks ettiradi. Masalan, bolaning maktabga birinchi bor borishi (Einschulung) kuni beriladigan Schultüte (konfetli konus) – ta’lim va mehnatsevarlik qadriyatini shirinlik orqali rag‘batlantiradi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning baptizmi (Taufe) marosimida Taufpate tanlash odati – jamoaviy mas’uliyat va hamjamiyat qo‘llovini ifodalaydi. To‘y marosimlaridagi bir qator o‘yinlar (kelinning gulduxobini uloqtirish – Brautstrauß werfen, kuyov-kelin birga arralash – Baumstammsägen, kelinni o‘g‘irlash hazili – Brautentführung) – oila birligi, hamkorlik va sinovlardan birga o‘tish g‘oyalarini ramziy ifodalab keladi shuningdek, kelin poyabzali uchun tanga yig‘ish odati (Hochzeitsschuhe mit Pfennigen bezahlen) – tejamlilik va baxtga ishonchni ifodalaydi.

Hayot sikliga oid odatlar oila va jamiyatning asosiy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Einschulung va Schultüte odatida biz ta’limga qanchalik katta e’tibor berilishini ko‘ramiz. Bola va uning oilasi uchun birinchi sinf nafaqat shaxsiy qadam, balki jamiyat oldidagi mas’uliyat hamdir, shu bois tantanali muhit va shirin rag‘bat bilan boshlanadi. Taufpate nemis jamiyatining kollektivizm unsurini ko‘rsatadi. Garchi Hofstede ta’biri bo‘yicha nemislar individualist sanalsa-da, aslida bola tarbiyasida hamjamiyat ishtirokini qadrlovchi udum mavjuddir ya’ni, yaqini bolaga homiy bo‘ladi, bu orqali ishonch tarmog‘i shakllanadi. To‘y odatlariga nazar solsak, ular turli aksiologik tomonlarni ramziy o‘yin orqali ifodalaydi.Gul uloqtirish – nikohni baxt va umid bilan bog‘laydi (yaqin dugonalarga navbat tilaydi), yog‘och arralash esa oilaviy hayotni mehnat va hamkorlik deb talqin qiladi, kelin o‘g‘irlash – nikoh ahdini qadrli deb, erning sadoqatini sinovdan o‘tkazadi. Pfennig yig‘ish – uzoq yillik sabrlilik va tejamlilik orqali barpo etilgan baxt barqaror bo‘lishini bildiradi. E’tiborli jihati, bu odatlarning ko‘pi qiziqarli hazil va o‘yinga aylantirilgan bo‘lsa-da, ularning ortida yotgan madaniy skriptlar aniq bo‘ladi. Hududiy variantlar ham bu odatlarning qanchalik jonli ekanini ko‘rsatadi. Masalan, Brautentführung janub hududlarda sevib bajariladi, ammo shimolda unchalik darajada keng tarqalmagan. Bu jamiyat ichidagi madaniy subvariantlar mavjudligidan dalolat beradi. Umuman olganda, hayot sikli odatlari nemislar uchun oila va tarbiya muqaddas bir qadriyat ekanini, ularning har bir bosqichi jamiyat tomonidan e’tirof va qo‘llab-quvvatlanishi lozimligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nemis xalqining urf-odatlari va qadriyatlari til birliklari orqali avloddan-avlodga o‘tuvchi madaniy kod sifatida namoyon bo‘ladi. Bartmiński, Wierzbicka, Fillmore, Lakoff va Johnson kabi tilshunoslarning nazariyalari bu jarayonni izohlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Eliasning sivilizatsiya jarayoni, Douglasning poklik va xavf nazariyasi, Assmannning madaniy xotira konsepsiyasi hamda Miederning maqollar haqidagi qarashlari nemis jamiyatida til va odatlar o‘zaro qanday uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Hofstede modeli esa individualizm va noaniqlikdan qochish kabi ko‘rsatkichlar orqali nemis madaniyatidagi tartib, qoidaparanlik va shaxsiy hududga hurmat xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Kalendar marosimlari (Advent, Nikolaus, Rojdestvo, Karnaval, Maibaum, Oktoberfest) va hayot sikliga oid odatlar (Einschulung, Taufe, to‘y marosimlari) jamiyat qadriyatlarini ramziy shaklda ifodalab, madaniy xotirani jonlantiradi. Umuman olganda, nemis urf-odatlari va qadriyatlari lingvomadaniy mazmun orqali xalqning ijtimoiy xotirasi, birdamlik va axloqiy me’yorlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://www.sueddeutsche.de/reise/trinksitten-weltweit-bloss-nicht-anstossen-1.1784535
2. https://doi.org/10.22501/JSS.374514
3. https://www.brauchwiki.de/nikolaus/#:~:text=Angelehnt%20an%20die%20Legende%20Ausstattung,%C3%84pfel%2C%20N%C3%BCsse%20und%20andere%20S%C3%BC%C3%9Figkeiten
4. https://www.researchcatalogue.net/view/374514/374515/0/500 [accessed 03/09/2025]
5. https://www.katholisch.de/artikel/15892-wer-sind-die-sternsinger#:~:text=Sie%20segnen%20nicht%20nur%20Wohnh%C3%A4user%2C,zeigen%20das%20jeweilige%20Jahr%20an
6. Wierzbicka A. Cultural scripts and intercultural communication // Pragmatics across Languages and Cultures, edited by Anna Trosborg. – Berlin, New York: De Gruyter Mouton, 2010.